

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIK OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM JARAYONINI  
TASHKIL ETISHDA AMALIYOT BILAN UZVIYLIGINI TA‘MINLASH  
MASALALARI**

**Respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya  
2024-yil, 15-oktyabr**

**Republic-wide scientific and scientific-technical conference  
ISSUES OF ENSURING INTEGRATION WITH PRACTICE IN  
ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN INSTITUTIONS OF  
PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION**

**October 15, 2024**

**1974 2024**  
**Республиканскую научно-техническую конференцию на тему  
«РОЛЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА  
ВЗАИМОСВЯЗИ С ПРАКТИКОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ  
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ»,  
которая состоится 15 октября 2024 года**

**JIZZAX – 2024**

пространство возможно только при условии разработки новой системы взаимодействий дошкольной образовательной организации и семьи.

#### **Заключение**

Проблема взаимодействия дошкольной образовательной организации и семьи в последнее время попала в разряд самых актуальных. Папам и мамам необходимо помнить, что дошкольная образовательная организация - только помощник в воспитании ребёнка, и потому они не должны перекладывать всю ответственность на педагогов и устраниваться от воспитательно - образовательного процесса. Каждый ребёнок это особый мир, и познать его может только тот, кто умеет вместе с малышом разделить его огорчения и тревоги, его радости и успехи.

#### **Использованные литературы:**

1. Мелиев Х., Буранова Ш. Маҳалла, оила ва мактабгача таълим ташкилоти ҳамкорлик тизими ишларини такомиллаштириш. // Монография. – ЖДПИ. Таҳририй-нашриёт бўлими, 2021. –108 б.
2. Мелиев Х, Буранова Ш. The continuity of neighborhood, family and preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life // Scopus, Journal of critical reviews. ISSN- 2394-5125. Issue 11, Vol – 7. 2020 May 5. (Scopus).
3. Буранова, Ш. А., & Пак, Д. А. (2021). Развитие навыков письма у дошкольников в раннем возрасте. Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития (стр. 142-143).

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI MUHIM O‘ZGARISHLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

*Jabbarova Zaynab*

*i.f.f.d PhD (JizPI)*

*Primqulova Zarina*

*3-bosqich talabasi (JizPI)*

#### **Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda zamonaviy oliy ta’lim tizimidagi muhim o‘zgarishlar hamda hozirgi kunda bo‘layotgan yangicha yondashuvlar hamda ta’lim tizimidagi islohatlar haqida va bu islohatlar bizning o‘qishimizda qay darajada targ‘ibot qilganayotganligi to‘g‘risida va shu bilan birgalikda, mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoylik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** yangiliklar, islohotlar, yangicha yondashuvlar, muammo, yechim, innovatsiya, ta’lim tizimi, ta’lim sifati, ta’limda texnologiya, kredit modul tizimi, taqqoslash.*

#### **Annotation:**

*In this article, about the important changes in the modern higher education system in New Uzbekistan and about the new approaches and reforms in the education system, and about the extent to which these reforms are promoted in our studies, and thus together, since the first years of independence, the development of the education system in our country has risen to the level of state policy, ensuring that our children acquire modern knowledge and skills in conditions corresponding to world standards, and grow up to be physically and spiritually mature people, it is reported that great work is being done to realize their abilities and talents, to realize their intellectual potential, to perfect the feelings of loyalty and devotion to the motherland in the hearts of our youth.*

**Key words:** *news, reforms, new approaches, problem, solution, innovation, education system, quality of education, technology in education, credit module system, comparison.*

Bilamizki, bugungi kundagi Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamalikning aslo iloji yo‘q.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi.

Shuningdek, bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar, maktablar barpo etilyapti. Qisqa vaqt, ya’ni to‘rt yil ichida Respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib, bog‘cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Davlatimiz Prezidenti shuni ta’kidlaydiki: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”<sup>38</sup>

Yaqin-yaqinlarga o‘qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o‘quvchilar ham, to‘rt oylab paxta yig‘im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgan, natijada o‘qituvchi bir oyda o‘rtacha 80 soat dars o‘tishi kerak bo‘lsa, to‘rt oyda 320 soat yo‘qotadigan vaziyat vujudga keldi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida mana shunday salbiy holatlarga chek qo‘yildi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o‘quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta’lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e’tirofga erishish hamda boshqa ko‘plab aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi 5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta’lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o‘quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilyapti. Maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilgi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi.

Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

<sup>38</sup> Шавкат\_Мирзиёев. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz



Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga yetkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yana-da kengaytirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Yoshlarga oid Davlat dasturi", yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".<sup>39</sup>

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'limtexnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada Prezident hamda hukumatimiz belgilab bergan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob
2. Шавкат\_Мирзиёев: Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.

<sup>39</sup> Shavkat-Mirziyoyev. Asarlar 1-jild. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz

3. Shavkat-Mirziyoyev: Asarlar 1-jild. milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'ramiz.
4. Шавкат Мирзиёев: Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик!
5. Шавкат Мирзиёев: Erkin va farovon demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
6. Mamasodikovna J. Z. Development of the economy of the republic of uzbekistan to support small business and private enterprise.
7. Жабборова З.М. КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ //ИТМОИЙ ФАНLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 55-60.
8. Mamasodikovna J. Z. Development of the economy of the republic of Uzbekistan to support small business and private enterprise //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т.12. – №.1. – С.22.26.
9. Жабборова З. М. О СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 12-4. – С. 47-50.
10. Mamasodikovna J. Z. DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO SUPPORT SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTERPRISE //A BIBLICAL NARRATIVE OF THE THEOLOG OF WORK.
11. Rasulova S., Jabborova Z. PRINCIPAL DIRECTIONS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //International Finance and Accounting. – 2019. – Т. 2019. – №. 3. –С. 18.

#### YOSHLAR TARBIYASIDA AJDODLAR MA'NAVY MEROSINING O'RNI

*Usmon S. To'pchiyev*

*t.f.f.d. Jizzax DPU o'qituvchisi*

##### **Annotatsiya:**

*Maqolada ajdodlarimizning betakror ma'naviy merosi va uning tarixiy ildizlari yoritilgan ekan, ma'naviyatning tarixiy ildizlari zaminimizda yaratilgan qadimgi tosh bitiklar, rivoyatlar, afsonalar, hikoya va dostonlar, xalq og'izaki ijodi, shuningdek buyuk qomusiy allomalar ilmiy merosida o'z aksini topgan bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ma'naviy meros, yosh avlod, buyuk allomalar, "Avesto", Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburb, "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlari, ta'lim-tarbiya.*

Bugungi kunda jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, ma'naviy hayotimizda ham chuqur o'zgarishlar, islohotlar davom etmoqda. Mazkur yangilanishlar jarayonida milliy o'zlik va o'ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo'lgan jamiyat a'zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda ajdodlar ma'naviy merosi rolining ortib borishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... buyuk zotlarning qoldirgan bebaho merosini chuqur o'rganish, ularning qadamjolarini obod qilish va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha birgalikda qilgan ishlarimiz ham barchamizga mamnuniyat yetkazadi" [1: 45-bet]. Ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma'naviy merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

"...har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib-ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi" - deganida tarixan shu zaminda yashagan